

2020-yil 18-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining Sankt-Peterburgdagi Bosh konsulligida «Uzbekistan ?irways» va «AeroTour» kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasidagi yangi sayyohlik yo‘nalishlarining taqdimotini o‘tkazishdi. O‘zbekiston Respublikasining Sankt-Peterburgdagi Bosh konsulligi va O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ko‘magida tashkil etilgan uchrashuvda «Uzbekistan ?irways» aviakompaniyasi vakili yig‘ilganlarga yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan ushbu sohani qayta qurish to‘g‘risida batafsil ma’lumot berdi. Shuningdek, ular parvozlar va yo‘lovchilar uchun yuqori darajadagi xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qayd etdilar.



O‘zbekistonning sayyohlik yo‘nalishini ommalashtirish, «Uzbekistan ?irways» va aviakompaniyasining bosh sotuvchisi hamda Rossiyaga sayyoohlarni O‘zbekistonga yuboruvchi yirik sayyohlik operatori "AeroTour" bilan hamkorlikni rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida nafaqat Sankt-Peterburgdan parvozlar bilan yangi dasturlar ishlab chiqilgan, balki Rossianing boshqa shaharlari va viloyatlaridan ham tashrif buyurish mumkin. Joriy yilda ishbilarmonlik turizmini tashkil etish va rivojlantirish, MICE va biznes sayohat dasturlarini, shuningdek, bolalar turizmini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.



Uchrashuv yakunida «Uzbekistan ?irways» va "AeroTour" kompaniyalari vakillari O‘zbekistonning Bosh konsulligi va Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga O‘zbekistonning sayyohlik yo‘nalishini chet elda ommalashtirish va ko‘plab chet ellik sayyoohlarni mamlakatimizga jalb etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda ko‘rsatgan yordamlari uchun minnatdorchilik bildirdilar.



[Download PDF](#)